

ANTONIO MACHADONING HAYOTI VA IJODIGA BIR NAZAR

Sobirov Shaxriyor Muzaffarjonovich

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XX asr ispan adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri Antonio Machado va uning ijodi haqida so'z yuritiladi. Antonio Machadoning adabiy uslubi she'riyatining qisqaligi va ritorikadan foydalanmaganligi bilan ajralib turadi. Uning modernizmdan boshlanib, romantizmga qarab borgan ijodida inson ruhiyatining eng ichki hislarigacha yorqin tasvirlangan.

Kalit so'zlar: "Proverbios y canares", Modernizm, "Soledades", tendensiya, romantizm, milliy ifoda, "A un olmo seco"

КРАТКИЙ ОБЗОР О ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСТВЕ АНТОНИО МАЧАДО

Собиров Шахриёр Музаффаржонович

Студент Узбекского государственного университета мировых языков

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассказывается об Антонио Мачадо, одном из известных представителей испанской литературы 20 века, и его творчестве. Литературный стиль Антонио Мачадо отличается краткостью его поэзии и отсутствием риторики. В его произведениях, начиная от модернизма и переходя к романтизму, ярко изображаются сокровенные переживания человеческой психики.

Ключевые слова: «Proverbios y canares», модернизм, «Soledades», течение, романтизм, национальное самовыражение, «A un olmo seco»

A BRIEF REVIEW ON THE LIFE AND POETRY OF ANTONIO MACHADO

Sobirov Shakhriyor Muzaffarjonovich

Student of the Uzbek State University of World Languages

ABSTRACT

This article tells about Antonio Machado, one of the famous representatives of Spanish literature of the 20th century, and his work. The literary style of Antonio Machado is distinguished by the brevity of his poetry and the absence of rhetoric. In his works, starting from modernism and moving on to romanticism, the innermost experiences of the human psyche are vividly depicted.

Key words: "Proverbios y canares", Modernizm, "Soledades", current, Romanticism, national self-expression, "A un olmo seco"

Me gusta verlos pintarse
De sol y grana, volar
Bajo el cielo azul, temblar
Súbitamente y quebrarse...

(Antonio Machado, "Proverbios y cantares")

KIRISH

Antonio Machado o'z asarlarida bolaligidan qolgan xotiralari, sayohatlari, muhabbati va sarguzashtarini aks ettirgan.

Antonio Machado Ruiz ta'riflab bo'lmaydigan iste'dodga ega, mashhur ispan shoiridir. Antonioning universitetdagi hayotida shoir qobiliyatining yuzaga chiqishida uning iqtidorini sezgan hamda mehr-muhabbat va sabr bilan to'g'ri yo'l ko'rsatgan ba'zi o'qituvchilarining roli katta bo'lgan.

Shuni yodda tutish kerakki, yozuvchi ijodida Modernizmning nazm yo'nalishi asosiy o'rin egallaydi. Antonio Machado she'riyatiga aniqlik bilan birga nozik hissiyot mavhumlik pardasiga o'raladi. Machadoning eng olqishlangan va tan olingan "Soledades (Yolg'izlik)" she'rlar to'plami uning iste'dodini ommaga tanitdi. Shu paytdan boshlab shoirning ijodi o'sishdan to'xtamadi va bugungi kunga qadar she'riy to'plamlari sevib mutoala qilinadi. Ulardan biri "Soledades", o'zining nomidan yaqqol ko'rinib turibdiki, bu to'plamda o'z-o'zi bilan yolg'iz qolish va mavzuga xos falsafiy azob-uqubatlar o'z tasvirini topgan. She'riy to'plam asosan xotiralar, umidsizlik va orzular atrofida aylanadi.

Antonio Machado o'z vatanini juda yaxshi ko'rgan, uning ba'zi she'rlari unga bag'ishlagan. "Campos de castilla" 1912-yilda nashr etilgan kitob bo'lib, bunda Kastilya yerlarining tabiatiga oshuftalik ifoda etilgan. Biroq, Antonio qishloqlarning rivojlanmasligidan noroziligini ham bildirgan. Yozuvchi hukumat tomonidan qishloqlarni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarning yetarli emasligi va ularning taraqqiyoti shahar joylari bilan bir xil darajaga chiqish orzusi haqida gapiradi. Shoirning ta'kidicha, qishloq aholisining oldinga intilish ishtiyoqi kamligi va jasoratli emasligi o'sha zamon ispan jamiyatidagi asosiy muammo hisoblangan. Shuningdek, Machado she'rlarida uning Ispaniyaga bo'lgan his-tuyg'ulari, rafiqasining o'limi munosabati bilan qalb og'riqlari va oldinga intilish istaklari aks etgan.

Antonio Machado ulkan mutafakkir shoir edi. Uning tafakkur darajasi va tushunchasi o'sha davr shoirlaridan sezilarli darajada ustun edi. Asrlar davomida cherkovda odamlar rioya qilinishi kerak bo'lgan qoidalar tuzilgan bo'lib, Machado xudojo'yligiga qaramasdan ruhoniylarning ko'p qarashlarini ma'qullamagan. Yozuvchining fikriga ko'ra ro'za tutish, tavgaga mukkasidan ketish kabilar

ruhoniylar bajarishi kerak bo'lgan majburiyatlardir, ularni aholini ongiga singdirish cherkovning maqsadli usullaridan boshqa narsa emas, biroq shuning bilan birga Machado har doim Yaratuvchiga bo'lgan muhabbat barchasidan ustun bo'lishi kerak, deb ta'kidlaydi.

TAHLIL VA METODOLOGIYA

Antonio sinesteziya usulidan foydalanib, o'z misralarida musiqiylikni saqlab qolishga harakat qilgan. Uning ko'pgina asarlari ohangdor tarzda o'qilishi mumkinligi sababli boshqa shoirlarning asarlaridan yaqqol farq qiladi.

Antonio Machado sil kasalligi tufayli vafot etgan rafiqasiga atab bir necha bag'ishlov she'riy asarlarini yozgan, ular kasallik davrida, o'lim vaqtida va undan keyingi davrdagi ichki kechinmalarga boy she'rlaridir. "A un olmo seco (Qurigan qayrag'ochga)" she'rida u Leonorning (rafiqasi) o'limidan bir necha oy oldin sog'lig'i yaxshilanishini orzu qilib hissiyotlarini qog'ozga to'kkan. Qalbida sevgi va azob jo'sh urgan shoirgina:

Al olmo viejo, hendido por el rayo,

Y en su mitad podrido.

Con las lluvias de abril y el sol de mayo,

Algunas hojas verdes le han salido, deya olishi mumkin. (Mazmun tarjimasi:

Keksa qarag'ayning chaqmoqdan yorilgan,

Va yarmi qurigan tanasi.

April yomg'iri-yu may quyoshida,

Ne tong, yashil barglar mavj urdi unda.)

Bu she'rga shoirning qayg'usi ortida umid ham aks etgan. Qayrag'och she'rida, daraxt umrining oxiriga kelib, charmoqdan yorilgan tanasi deyarli butunlay qurigani, ammo bahor kelganda novdalarida bir nechta yangi yashil barglari paydo bo'lishida umidni tasvirlaydi. Bu esa hamma narsaga qaramay, qurib qolgan deb hisoblangan darxtning hayot uchun kurashishi, uning hali ham tirikligini, yashashga ishtiyoqini tasvirlaydi. Machado bu mo'jiza uning hayotida ham sodir bo'lishiga umid qilib ushbu istaklarini "Qarag'ayga" she'rida aks ettirgan.

Antonio Machado o'zidan yuzlab iboralar ham qoldirdi. O'limidan bir yildan so'ng shoirning turli nozik iboralar – aforizmlar jamlanmasi ham tayyorlangan:

En el corazon tenia la espina de una passion. Logre arrancarmela un dia: ya no siento Corazon (Mazmuni: Yuragimda ehtirosdan yaralgan tikan bor edi. Bir kuni men uni yulib otishga muvaffaq bo'ldim: shundan buyon yurakni his qilmay qo'ydim).

2019-yil Antonio Machado vafotining 80 yilligi keng nishonlandi. Shoir sharafiga bag'ishlab universitet va kollejlari uning nomi bilan atalgan. Amerika qo'shma shtatlaridagi Ispan instituti kabi dunyodagi ko'pgina institutlar Machadoni

doimiy munosib e'tirof etib keladilar. Manuel Serrat tomonidan Antonio Machado yubileylariga bag'ishlab shoirning ijod namunalari musiqiy asarlarga aylantirilgan.

Antonio Machado she'riyatida e'tiqod, hayotiy nomuvofiqliklar va tajribalarini o'ziga xos va sharaflari tarzda aks ettira oldi. Garchi u xurofotlar ko'p bo'lgan davrda yashagan bo'lsa-da, haqiqatni va dunyoga tanqidiy munosabatini ifoda etishdan qo'rqmay ijod qildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, agar biz Antonio Machadodan nimadandir bilsak, bu uning yuksak insoniy va ijtimoiy majburiyatga ega she'rlari tufaylidir, qolaversa, xalq hikmati va xohishiga asoslanib, qayta o'qiganda ularda yangidan yangi mazmun kashf etish mumkin, hamda kelgusi ijodkorlar shakllanishida sof ijodiy havo va ilhom bag'ishlay oladigan muallifdir. Uning modernizmdan boshlanib, romantizmga qarab borgan ijodi ruhiyatning eng ichki hislarigacha yorqin tasvirlay olgan. Bunga erishish uchun u fe'lni asosiy ifodali va tovushli vosita sifatida ishlatgan, chunki uning fikriga ko'ra hissiyot va tuyg'u tasvirining mohiyati asosini fe'l tashkil etadi. Shu bilan birga, Antonio Machado she'riyatining tili soddaligi, inson hissiyotlarining ravshan ifodasi bilan diqqatni jalb etadi. Machadoning asarlarida uning ruhiyati, hayoti, hissiyotlari va kundalik turmush tarzi mohirona va o'quvchi qalbiga yaqin aks etgan. Antonio Machado o'z davrining eng ko'p o'qilgan shoirlaridan biri edi va hanuzgacha "ko'p va xo'b" o'rganiladigan shoir sifatida qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Diego G. "Tempo" lento en Antonio Machado. – Madrid: Ediciones Taurus, 2012. – p. 272.
2. Cardwell R. "Antonio Machado and the Search for the Soul of Spain: A Genealogy". *Anales de la Literatura Española Contemporánea*. 1998, 23 (1/2): 51–79.
3. Bakhronova D. Los motivos del lobo de Rubén Darío. https://cvc.cervantes.es/ENSEÑANZA/biblioteca_ele/aepe/pdf/coloquio_2012/coloquio_2012_11.pdf
4. <https://www.actualidadliteratura.com/poesia-de-antonio-machado/>
5. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Antonio_Machado
6. <https://www.zendalibros.com/antonio-machado-y-la-sombra-de-cain/>
7. <https://hablacultura.com/cultura-textos-aprender-espanol/cultura/antonio-machado-soledades-ii/>